


**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 24-martdagi 3/15-4/1-2620-son ijrosi yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida
amalga oshirilgan ishlar
MA'LUMOTI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 31-maydagi PQ-171-son qarori bilan tasdiqlangan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi masalalariga bag'ishlangan muhim sanalar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar kalendar rejasining 8-bandiga muvofiq, **2025-yil 25-mart kuni** respublikamizda **"Yer vaqti (kuni)"** nishonlanishi belgilangan.


Shu munosabat bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida professor o'qituvchilari ishtirokida shu sanaga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.



Tadbirda shu sanaga oid ma'lumotlarni, aynan nima uchun **"Yer vaqti (kuni)"** dunyo bo'ylab har yili 25-martda nishonlanishi, sayyoramiz bo'ylab 1 soat (60 daqiqa) elektr energiyasi o'chirib qo'yilishi to'g'risida Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida stajyor o'qituvchisi Nurmatov Ro'zimhammad tomonidan ma'lumotlar berib o'tildi.



Tadbirda shuningdek, kafedramiz o'qituvchilari tomonidan "Yer vaqti (kuni)" ning mazmun mohiyati va qaysi davlatlar bu aksiyada ko'proq ishtirok etishi, davlat tashkilotlarida 25-mart — Yer soati kunida elektr energiyasi bir soatga o'chirilishi to'g'risida Biologiya yo'nalishi talabalariga yetarlicha ma'lumotlar berildi. Tadbirda Biologiya yo'nalishi talabalari ham faol ishtirok etib, o'zlari qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.



**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektori:**

B.Jo'rayev

/Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani:

B.Iraliyev

**Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari
texnologiyalari kafedrası mudiri:**

M.Hamroyeva

Kotiba :

D. Sodiqova

